

## IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH



2022 yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 478,7 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 679,3 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9 foizni tashkil qildi.




Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi  
(2022 yil yanvar-sentabr)

	Jami	shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:	
		davlat	nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m	7 478,7	1 082,2	6 396,5
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>			
davlat byudjeti mablag‘lari	850,9	805,1	45,8
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	120,6	120,6	-
korxonalar va aholi mablag‘lari	2 315,2	128,3	2 186,9
chet el investitsiyalari va kreditlari	3 326,2	25,3	3 300,9
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	865,8	2,9	862,9
Tiklanish va taraqqiyot fondi	-	-	-

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta‘minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.



2022 yilning yanvar-sentabr holatiga alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi  
(umumiy hajmga nisbatan foizda)



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Ishlab chiqarish sanoati
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash
- Turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalarga qarish sanoati
- Boshqa faoliyat turi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(mlrd. so'm)

	Yanvar-sentabr			
	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2022 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>6 536,0</b>	<b>100,0</b>	<b>7 478,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>				
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	855,8	13,1	1 494,3	19,9

davomi

	Yanvar-sentabr			
	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2022 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
tog‘-kon sanoati	677,4	10,4	1 308,9	17,5
ishlab chiqarish sanoati	2929,4	44,8	1 975,2	26,4
elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	147,1	2,3	283,7	3,8
suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	180,0	2,8	369,7	4,9
qurilish	537,8	8,2	165,3	2,2
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	570,6	8,7	230,0	3,1
tashish va saqlash	59,8	0,9	107,8	1,4
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6,3	0,1	24,6	0,3
axborot va aloqa	16,3	0,2	132,5	1,8
moliyaviy va sug‘urta faoliyati	7,7	0,1	42,7	0,6
professional, ilmiy va texnik faoliyat	69,2	1,1	248,0	3,3
ta‘lim	59,5	0,9	286,7	3,8
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	41,5	0,6	111,9	1,5
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	296,7	4,5	468,5	6,3
san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	14,4	0,2	32,7	0,4
boshqa faoliyat turlari	66,5	1,1	196,2	2,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 1 494,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 19,9 %), ishlab chiqarish sanoatida – 1 975,2 mlrd. so'm, (26,4 %) shundan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda 252,9 mlrd. so'm (3,4 %), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishda – 157,5 mlrd. so'm (2,1 %), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishda – 1 115,3 mlrd. so'm (14,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 283,7 mlrd. so'm (3,8 %), qurilishda – 165,3 mlrd. so'm (2,2 %), tashish va saqlashda – 107,8 mlrd. so'm (1,4 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 230,0 mlrd. so'm (3,1 %), axborot va aloqada 132,5 mlrd. so'm (1,8 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 248,0 mlrd. so'm (3,3 %), ta'limda – 286,7 mlrd. so'm (3,8 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 468,5 mlrd. so'mlik (6,3 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### **Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar**

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 3 326,2 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,9 foizni tashkil qildi.




#### **Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi (2022 yilning yanvar-sentabrida)**

	<i>Umumiy hajmi (mlrd. so'm)</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>davlat kafolati ostida</i>	<i>to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar</i>
Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	<b>3 326,2</b>	<b>322,7</b>	<b>3 003,5</b>
shu jumladan:			
davlat	25,3	25,3	-
nodavlat	3 300,9	297,4	3 003,5

Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi 44,5 foizni tashkil qildi.




**Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 41,5 foizni tashkil qilgan va 2021 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,7 foizga ko'paygan, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 24,6 foizni tashkil qildi.



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi





2022 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ifodalangan

	<i>Investitsiyalar hajmi mlrd.so‘m</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshi (ming so‘m)</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>7 478,7</b>	<b>106,9</b>	<b>5 140,0</b>	<b>104,6</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 692,6	106,1	8 969,8	102,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	172,6	109,8	3 626,3	107,9
Baxmal	349,3	101,2	2 124,5	99,0
G‘allaorol	299,7	101,5	1 661,4	99,3
Sharof Rashidov	584,9	101,5	2 511,2	99,7
Do‘stlik	141,8	118,2	2 082,6	116,3
Zomin	444,4	101,1	2 573,5	98,7
Zarbdor	155,4	101,6	1 703,7	99,2
Zafarobod	509,2	146,6	9 792,4	143,5
Mirzacho‘l	222,1	104,3	4 120,3	102,6
Paxtakor	140,6	116,5	1 800,1	113,8
Forish	2 680,0	105,0	27 975,2	103,5
Yangiobod	86,1	109,1	2 948,3	107,6

#### Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy–joy qurilishida 468,5 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 6,3 foizni tashkil qildi.



2022 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

	<i>Barcha manbalar hisobidan</i>			
	<i>Foydalanishga topshirildi</i>		<i>2021 yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan: qishloq joylarda</i>	<i>jami</i>	<i>shu jumladan: qishloq joylarda</i>
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	437,4	421,8	106,2	90,9
<i>undan:</i>				
<i>yakka tartibdagi uy-joylar</i>				
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	8,3	8,3	-	-
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni	8 017	5 429	273,6	364,3
Suv tarmoqlari, km	3 24,1	2 59,4	76,6	68,0
Gaz tarmoqlari, km	28,2	13,9	111,0	98,5

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 437,4 ming kv m bo'lgan 2 329 mingta uy yoki 180 mingta kvartira (2021 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,2 %), shu jumladan qishloq joylarida 421,8 ming kv m (90,9 %) maydonga ega 1 350 mingta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 324,1 km suv tarmoqlari (259,4 km qishloq joylarda) va 28,2 km gaz tarmoqlari (13,9 km qishloq joylarda) ishga tushirilib, mos ravishda 2021 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 76,6 va 111,0 foizni, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich suv tarmoqlari 68,0 foizni, gaz tarmoqlari 98,5 foizni tashkil qildi.

Suv tarmoqlari qurilishiga 122,0 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 1,3 mlrd. so'm (1,1 %) va chet el investitsiyalari krediti mablag'lari hisobidan 0,1 mlrd. so'm hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 120,6 mlrd. so'm, (umumiy hajmning 98,9 %) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,5 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,5 mlrd. so'm (umumiy hajmning 100,0 %) o'zlashtirildi.



### Qurilish faoliyati

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 2 534,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 106,0 foizni tashkil etdi.

#### Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari tarkibi,

mlrd. soʻmda


	yanvar-sentabr	
	2021 yil	2022 yil
<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>2 297,1</b>	<b>2 534,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	48,0	24,6
nodavlat	2 249,1	2 510,0

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2 510,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 99,1 foizini tashkil qildi.




Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)

2021 yil yanvar-sentabr



2022 yil yanvar-sentabr



■ Davlat mulki

■ Nodavlat mulki



**Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi**


Qurilish ishlari umumiy hajmining 81,0 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 12,1 foizi fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,8 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan umumiy hajmdan 83,2 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida Jizzax viloyati bo‘yicha jami qurilish ishlari hajmi 2534,6 mlrd. so‘m nodavlat sektorining ulushi 99,1 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 83,2 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga 16,8 foizi esa, kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.





**2022 yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘mda**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 81,0 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 2,9 foiz punktga kamaygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 12,1 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 foiz punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 6,8 foizi to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 1,3 foiz punktga ko'paydi.



Yirik pudrat korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi – 5,0 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining – 73,3 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa, – 21,7 foizga qurilish ishlari bajarildi.

Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumanida to'g'ri keldi – 85,2 foiz. Mazkur hududda norasmiy sektorning ulushi – 14,8 foizni tashkil etdi.